

### ALISHER NAVOIYNING QORAQALPOQ ADABIYOTIGA TA'SIRI VA ASARLARINING TARJIMASI XUSUSIDA

**Anvar Allambergenov,**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori, instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyotiga ta'siri va asarlarining qoraqalpoq tiliga tarjimasi borasida so'z boradi. "Xamsa" dostonlarining tarjimasi, tarjimonlari va ularning e'lon qilinishi haqida to'xtaniladi. Navoiy g'azallarining tarjimasi borasidagi o'ziga xosliklar aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'sir, tarjima, o'ziga xoslik, g'azal, muxammas, tarjimon, mahorat, iste'dod.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается влияние творчества Алишера Навои на каракалпакскую литературу и перевод его произведений на каракалпакский язык. Обсуждается перевод эпосов «Хамас», переводчики и их публикация. Отмечены особенности перевода газелей Навои.

**Ключевые слова:** влияние, перевод, оригинальность, газель, значимость, переводчик, мастерство, талант.

**Abstract.** This article deals with the influence of Alisher Navoi's work on Karakalpak literature and the translation of his works into Karakalpak language. The translation of "Hammas" epics, translators and their publication will be discussed. Peculiarities of the translation of Navoi's ghazals are mentioned.

**Key words:** influence, translation, originality, ghazal, importance, translator, skill, talent.

Boy va qadim tarixga ega o'zbek mumtoz adabiyotini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qila olmaymiz. Navoiy o'zining nodir asarlari bilan turkiy tilimizning naqadar nafis va serjilo ekanligini amalda isbotlab bergan. "Muhokamat-ul lug'atayn", ya'ni ikki til muhokamasi asarida tilimizning imkoniyatlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, "Xamsa" asarining aynan ona tilimizda yozilishining o'zi olamshumul voqea bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Navoiyning ijod chashmasidan ko'plab iste'dodlar suv ichgan: Zahiriddin Muhammad Bobur, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Zokirjon Holmuhammad o'g'li Furqat – barcha-barchasi o'z hayotlari mobaynida Navoiy ijodiga qayta va qayta murojaat qilganlar, uni o'zlariga ustoz sanaganlar. Nafaqat yuqorida nomlari qayd etilgan o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan shoirlarimiz balki butun bir millat adabiyotining ulug' vakillari yuzaga kelishida ham hazrat Alisher Navoiyning o'rinlari beqiyosdir. Qoraqalpoq adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz Ajiniyoz Qo'siboy uli, Berdaq Qarg'aboy uli kabi buyuk siymolar ham Navoiy ijodi bilan tanish bo'lganlar, o'rgangan va shuning ta'sirida o'zlarining ijod namunalarini yaratganlar. Berdaqning birgina "Navoiydan savod ochdim" deya yozishining o'ziyoq yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i hisoblanadi. Ajiniyoz esa Alisher Navoiy murojaat qilgan aruz vaznining ko'plab bahrlarida o'zining g'azallarini bitgan. Bugungi kunda ham

qoraqalpoq xalqi Alisher Navoiyni o'zining qadr don shoiri deb biladi, uning adabiy merosini ma'naviy qadriyatining ajralmas bir qismi sifatida tushunadi. Shoirlari esa Navoiyni o'ziga ustoz sanaydi. Bunga misol tariqasida Navoiy g'azallariga bitilgan muxammaslar, g'azallaridan ta'sirlangan holda o'zlarining erkin ijod namunalari yaratishlari-yu, ulug' allomaning ijodidan namunalari tarjima qilishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Keyingi yillarda ham qoraqalpoq ijodkorlari tomonidan Alisher Navoiy ijodiga qayta-qayta murojaat qilinayabdi. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning muxammaslarini, iste'dodli shoirlar Abulqosim O'tepbergenov, Turkmenboy Jiyamurotovlarning g'azallarida ham navoiyona ruh, navoiyona uslub sezilib turadi.

O'zbek shoirlarining asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilish masalalari XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi oldidan qoraqalpoq matbuotida shoirlar sultonining bir nechta asarlari ilk bor qoraqalpoq tilida e'lon qilinadi. Xususan, M.Dariboyev tarjimasida "Farhod va Shirin" dostoni, A.Shamurodov tarjimasida "Layli va Majnun" dostoni "Qizil Qoraqalpog'iston" gazetasining 1938-yilgi bir necha sonlarida peshma-pesh nashr qilinadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng shoir Bayniyoz Qaypnazarov tomonidan "Hayrat-ul abror" dostoni qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. O'sha vaqtlarda Jo'lmirza Aymirzayev va Navro'z Japaqovlar bilan Alisher Navoiyning ayrim g'azallari qoraqalpoqchaga o'girishgan. Maten Matnazarov 1961-yilda "Xamsa"ning, qolaversa epik asarlari ichida hajm jihatidan eng yirik dostoni "Saddi Iskandariy"ni qoraqalpoq kitobxonlariga o'z ona tilida taqdim etdi. Bundan tashqari shoir Daulen Aytmuratov tomonidan tarjima qilingan ayrim g'azallar 1977-yilda "Qoraqalpog'iston" nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Gap Navoiy asarlari, xususan, g'azallari tarjimasida borasida ketar ekan o'zlari ham g'azal janrida ijod qilib, aruzning nihoyatda nozik ritmlarini his qilgan holda Alisher Navoiy g'azallarini mahorat bilan qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan ijodkorlar: Sharafaddin Ayapov, Jabborbergan Shamuratovlarni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ma'lumki, tarjimaning so'zma-so'z, qisqartirilgan va o'zlashtirilgan usullari mavjud. G'azal janri o'zining shakliy xususiyatlari, o'ziga xos ritmi va musiqiyliigi bilan ham kishini o'ziga maftun qiladi. Demak, shunday xususiyatlarning barchasi g'azalning ikkinchi umri – tarjimalarda ham o'z ifodasini topgan bo'lishi shart.

Tarjimonlar Daulen Aytmuratov, Ibroyim Yusupov, Abulqosim O'tepbergenov, Sharofaddin Ayapovlarning mohirona tarjimalari bilan alloma g'azallarining ikkinchi umri davom etmoqda. Tarjimada ijodkordan juda katta mas'uliyat talab qilinadi negaki, bir xalq tilidan ikkinchi xalq tiliga tarjima qilingan asar xoh u nasriy asar bo'lsin, xoh u she'riy asar bo'lsin yaxshi chiqmasa tarjimada o'qigan kitobxon,

tarjimonning noʻnoqroq tarjimasiga emas, muallifning oʻziga ixlossizlik bilan qaraydi. Tarjimonga quyidagi bir nechta talablar qoʻyiladi: muallif uslubi, davr ruhi, adabiy anʼana kabilarni yaxshi oʻzlashtirgan boʻlmogʻi lozim. Yuqoridagi talablarga javob bermay qilingan tarjima toʻmtiq, hissiz va jonsiz chiqishi tabiiy, u shaklan tarjima mazmunan esa quruq soʻzlar yigʻindisi boʻlib qolishi ham shubhasiz.

Ayniqsa, gʻazallarni tarjima qilish oʻta qiyin va masʼuliyatli ishdir. Navoiy esa aynan shu janrda barakali qalam tebratgan shoir. Ohangdor ritmik boʻlaklar asosida ish koʻriladigan gʻazallarni tarjima qilish uchun aruz nazariyasini puxta bilish, sharq mumtoz poeziyasi anʼanalaridan yaxshi xabardor boʻlish kerak. Chunki, biror gʻazalni vaznini saqlagan holda boshqa tilga koʻchirish uning ohangi, binobarin shoirning kayfiyati, tuygʻularini ham yetkazib berish demakdir.

Soʻnggi yillarda yuqorida qoʻyilgan talablarga toʻlaqonli javob bergan holda Alisher Navoiy ijodidan qilingan tarjimalarni “Qoraqalpoq adabiyoti” gazetasi sahifalarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, gazetaning 2011-yil 2-sonida Ibroyim Yusupovning, 2014-yil 2-sonida Abulqosim Oʻtepbegenovning, 2015-yil 2-sonida Jabborbergan Shamurotovlarning tarjimalarini muvaffaqiyatli chiqqan deyishimiz mumkin. Ularning kompozitsion qurilishi, maʼnosi, ohangi, qofiya va radiflarini oʻz holicha saqlashga katta eʼtibor qaratilgan.

Oʻzbek va qoraqalpoq sheʼriy anʼanalarining bir-biriga oʻxshashligi, bu ikki tilning oʻziga xos va farqli xususiyatlari boʻlsa-da, koʻp soʻzlarning bir xil maʼnoni anglatishi tarjimon ishini xiyla yengillashtiradi. Bu ayrim baytlardagi bir necha soʻzlarnigina tarjima qilib, shakl va mazmunni kam oʻzgartirgan holda qoraqalpoq sheʼrxonlariga yetkazish imkonini bergan.

Qayd etilganidek yozma bitiklar tarjimadan soʻng oʻzining ikkinchi umrini boshlaydi. Tarjimadan sheʼriy asarning qanchalik silliq, asliyatga yaqin chiqishi tarjimonning mahoratiga bogʻliq. Asrlar davomida bir qancha avlodlarga xizmat qilgan tarjimalar mavjudligi ayon. Lekin umuman, asl nusxaga nisbatan tarjimaning umri qisqaligini eʼtirof etish kerak. Asliyat oʻzgarmasligi bilan “ideal” hisoblansa, yaxshi, silliq tarjima zamonlar, makonlar, avlodlar, didlar, estetik tasavvurlar tafovutiga duch kelgan holda bot-bot oʻzgarib turadi. Baʼzan shunday boʻladiki, yuz yillar davomida bizgacha yetib kelgan sheʼriy bitiklar bir avlodning hayoti davomidayoq qayta-qayta tarjima qilinishi mumkin. Lekin biz oʻylaymizki, yuqorida nomlari tilga olingan tarjimonlarimiz tomonidan oʻgirilgan ijod namunalari zamonlar va makonlar talablariga javob bergan holda, asrlar osha kelajak avlodlarga yetib boradi.